

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIGA XOS JUFT VA TAKRORIY SO‘ZLARING LEKSIK,
GRAMMATIK HAMDA USLUBIY XUSUSIYATLARI**

Mamajonova Mashhura
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy she’riyatiga xos bo‘lgan juft va takroriy so‘zlarning leksik, senatik, grammatik, uslubiy xususiyatlari yoritilgan, juft va takroriy so‘zlarga oid she’riy asarlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: juft so‘z, takroriy so‘z, mukarrar, murabbo, bo‘lish, bo‘lish, jam va bo‘lish, murabbo va bo‘lish, laff va nashr.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanishi, sayqallanishi, fonetik, leksik-semantik, grammatik, uslubiy jihatdan meyorga solinib, takomil topishi Alisher Navoiy nomi bilan bog‘lanadi. Chunki “Navoiy asarlari XIV-XV asr o‘zbek mumtoz adabiyoti va eski o‘zbek adabiy poetik tilining taraqqiyot mezonidir. Eski uzbek adabiy tilining barcha muammolarini faktik materiallar asosida tadqiq qilishda Navoiyning eski o‘zbek adabiy tilida ijod qilgan nasriy va nazmiy asarlari asosiy manba – material bo‘ladi.” [1.4.]

Shoir ijodida ilgari surilgan g‘oyalarni anglash, unda qo‘llangan so‘zlar ma‘nosi va fikrlar mazmunini tushunish o‘z davridayoq murakkab masala bo‘lganligidan zamondoshlari tomonidan asarlari tilining izohli lug‘atlari yaratila boshlandi. “Badoyi al-lug‘at”, “Sangloh” “Lug‘ati Navoiy”, “Abushqa”, “Lug‘ati atrokiya”, “Muntaxab al-lug‘at” [2.99] kabilar shular jumlasidandir. Demak, o‘sha davrdagi sa‘y-harakatlar, izlanishlar natijasida o‘zbek tilshunosligi tarixida navoiyshunoslik sohasi yuzaga kela boshladi. Keyinchalik shoir asarlari tili, lug‘aviy birliklarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning ortib borishi tilshunoslar oldida yangidan yangi dolzarb vazifalarni vujudga keltirdi. Jumladan, X.Doniyorov[3], F.Abdullayev[4], E.Fozilov[5], U.Sanaqulov[6], A.Rustamov[7], G‘.Abdurahmonov[8], B.Bafoyev[9], S.Ashirboyev[10], Q.Sodiqov[11], A.Karimov[12] va boshqalar Alisher Navoiyning eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiy etishida tutgan o‘rni, asarlari tilining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini yoritish bo‘yicha murakkab masalalarni hal etdilar.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Alisher Navoiy uch til: turkiy, forsiy, arab tillarida mukammal asarlar yaratdi, zullisonayn ijodkor sifatida turkiy va forsiyda she’riy va nasriy asarlar bitdi. Ijodi davomida turkiy til imkoniyatlarini bor bo‘yi bilan ko‘rsatib bera olgan bo‘lsa, asarlari tiliga arab va fors tili imkoniyatlarini singdirib, leksik va grammatik xususiyatlaridan unumli foydalangan holda mazkur tillarga xos lug‘aviy birliklarni olib kirdi, grammatik shakl va vositalarni faol qo‘lladi.

Navoiyshunos B.Bafoyev Alisher Navoiy turkiy tilda yozilgan barcha asarlarida takrorlarsiz 20635ta so‘z qo‘llaganini qayd etadi.[1.19.] Bu so‘zlar sirasida juft va takroriy so‘zlar ham faol qo‘llanishda bo‘lgan. Birgina “Xazoyin ul-maoniy” to‘plamidagi so‘zlarni o‘rganish natijasida 514dan ortiq juft va 711 ta takroriy so‘z aniqlandi. Ularning leksik-semantik, grammatik, uslubiy xususiyatlari tahlil qilindi.

Izohli lug‘atda *juft so‘z* terminiga quyidagicha izoh berilgan: “*Bir leksik ma‘noni ifoda etadigan, chiziqcha orqali yoziladigan ikki komponentli so‘zlar*”. [13.359] Juft so‘z terminologik lug‘atlarda esa: “*O‘zaro bog‘langan ikki buyum-narsa, belgi, harakat kabilarni bildiradigan so‘zlarning qator kelishi*”, – deya ta’riflanadi. [14.55] Juft so‘zlarning asosiy semantik xususiyati umumlashtirish, jamlikni bildirishdir. Juftlashish shu talab natijasida kelib chiqqan. [15.42]

So‘zlarning juftlashishi uchun ma’lum bir mezon va meyor talab etiladi. Shoir asarlari tilida juftlashuv so‘zlarning sinonimlik, antonimlik, uyadoshlik va butun-qism munosabatiga asoslangan:

- 1) tarkibi sinonimlardan iborat juft so‘zlar: *ishq-muhabbat, qiyl-u qol* (gap-so‘z). *ahd-u paymon* (va‘da, so‘z berish), *sabr-u shikib* (sabr, chidam), *oh-u fig‘on, oh-u nola, rahj-u malol* (zahmat, qiyinchilik), *ranj-u mehnat* (mehnat, zahmmat, qiyinchilik)
- 2) tarkibi antonimlardan iborat juft so‘zlar: *yer-ko‘k, pinhon-u oshkor, tun-u kun, sobit-u sayyora, botin-u zohir, issiq-sovuq, yo‘q-u bor, yaxshi-yomon, paydov-u nihon, subh-u shom, g‘azabnok-u tarabnok, ko‘p-u chek, o‘t-u su, ush-yusr* (mushkullik va osonlik), *tolih-u solih* (yovuz va yaxshi), *ko‘rar-ko‘rmas, yoz-u kuz, borish-kelish, aytmish-tonmish, issig‘-ilig‘, sotiqliq, achiq-chuchuk, chin-u shikan, ola-bula, xalo-u malo, vujud-u adam* (bor-yo‘qlik)
- 3) tarkibi uyadosh so‘zlardan iborat juft so‘zlar: *qo‘ng‘irit-u qiyot* (urug‘ nomi), *toat-u taqvo* (diniy odat), *sarv-u gul* (majoziy ma‘noda ma‘shuqaning qaddi va yuzi) , *sog‘ar-u sahbo* (majoziy ma‘noda may va may idishi), *lal‘-u yoqut, oshiq-u ma‘shuq, zer-zabar* (ostin-ustun, ag‘darilgan), *mol-u joh* (mol-davlat), *qosh-u ko‘z, musht-u koch* (urish, zarba), *jon-u ko‘ngil, chang-u daf* (cholg‘u asbobi), *oq-u qizil, qosh-u kirpik, shingarfu zangor* (rang), *ichmak-yemak, qosh-u qabog‘, tog‘- u sahro, tog‘- u homun* (tep-tekis dala) *husn-u malohat, ob-u havo, tig‘-u kamar, o‘q-u yo, ato-ano, og‘o-ini, jadd-u ab* (ota-bobo, ajdod), *qosh-u kirpik, oy-u quyosh, oto-yu ini.*
- 4) butun-qism munosabatidagi so‘zlardan iborat juft so‘zlar: *dunyo-vu mofih* (dunyo so‘zi “butun”, *mofih* esa “undagi, uning ichidagi”), *oy-u yil, yil-u oy, qol-u maqol* (gap-so‘z), *qiyl-u qol* (gap-so‘z) kabi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida juft so‘zlar qismlarining ma‘no anglatish yoki anglatmasligiga ko‘ra 4 guruhga bo‘linadi:

- 1) ikkala qismi mustaqil ma‘no anglatadi: *aka-uka, el-yurt;*
- 2) birinchi qismi mustaqil ma‘no anglatadi, ikkinchisi anglatmaydi: *bo‘sh-bayov, temir-tersak;*
- 3) birinchi qismi mustaqil ma‘no anglatmaydi, ikkinchisi anglatadi: *nest-nobud, to‘s-to‘polon;*
- 4) ikkala qismi ma‘no anglatmaydi: *ikir-chikir, g‘idi-bidi.*[azim H.52-62]

Alisher Navoiy she‘riyati tilidagi juft so‘zlarning har ikkala qismi mustaqil ma‘no anglatuvchi so‘zlardan tashkil topgan. Faqat bir o‘rinda *ola-bula*, ya‘ni ikkinchi qismi ma‘no anglatmaydigan juft so‘z uchraydi :

Tun-kun hariri bo‘ldi quyoshning amomasi,

Tun chirmadi **ola-bula** dastor boshig‘a.(F.K.268)

Ola-bula “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “oq va boshqa har xil rang aralash tusli, gulli” tarzida izohlanadi[o‘z.t.iz.lug‘ati.36], lekin bu juft so‘z Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atlarining hech biriga kiritilmagan.

Alisher Navoiy asarlaridagi so‘zlarning 53-55 foizini o‘zlashma so‘zlar tashkil qiladi.[1.35.] Ularning asosiy qismi arabcha va forscha so‘zlarga to‘g‘ri keladi. Jumladan juft so‘z takibidagi so‘zlarning qaysi tilga mansubligiga ko‘ra quyidagi tasniflash mumkin:

- 1) **arabcha+arabcha:** *hukm-u amr* (buyruq, farmon), *javr-u zulm*, *ajz-u niyoz* (ojizlik, yolvorish), *ishq-muhabbat*, *qiyl-u qol* (gap-so‘z), *izz-u alo* (izzat va oliylik), *manzil-u ma‘vo* (turar joy, makon), *makr-u ol* (hiyla, firib), *javr-u sitam* (zulm, aziyat)
- 2) **arabcha+forscha:** *oqil-u farzona* (aqlli, dono), *mast-u bexud* (xushsiz, o‘zidan ketgan), *ruh-u ravon* (jon, ruh), *faqr-u fano* (faqirlik, dunyodan voz kechish), *jurm-u gunah* (gunoh, jinoyat), *tob-u pech* (buralish, o‘ralish), *ahd-u paymon* (va‘da, so‘z berish), *sabr-u shikib* (sabr, chidam)
- 3) **forscha+arabcha:** *ranj-u mehnat* (mashaqqat, qiynalish), *joh-u jalol* (shon-shavkat, martaba, ulug‘lik), *dard-u g‘am* (qayg‘u), *ranj-u taab* (mashaqqat, qiynchilik);
- 4) **forscha+forscha:** *bol-u par* (qanot-quyruq), *jon-u jahon* (butun borliq), *ko‘cha-ko‘y* (ko‘cha, yo‘l), *gung-u lol* (soqov bo‘lish, so‘zlay olmay qolish). *hush-u xirad*, *gah-u begah*, *gado-yu shoh*, *fig‘on-u faryod*, *faryod-u nola*, *donish-u farxang do‘st-u dushman dud-u o‘t*
- 5) **turkiycha-turkiycha:** *borish-u kelish*, *bir-iki*, *yaxshi-yomon*, *bor-u yo‘q*, *berur- bermas*, *hoy-u huy*, *ich-u tosh*, *sen-u men*

Demak, shoirning arab va fors tillariga xos so‘zlardan mohirona foydalanishi, asarlari tiliga olib kirishi juft so‘zlar yasalishi va ular ko‘lamining oshishida muhim rol o‘ynagan.

G‘.Abdurahmonov Navoiy ijodiga xos so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tili singari morfologik guruhlarga ajratadi.[16.31] Shoir she‘rlarida uchraydigan juft so‘zlar ham barcha mustaqil so‘z turkumlari va undov so‘zlarda kuzatiladi. Ularning eng ko‘pi otga xos so‘zlardir. Buni jamlash, umumlashtirish, ko‘plikni ifodalash kabi tushunchalar, asosan, otga xosligi bilan izohlash mumkin.

She‘riy matnlarda qo‘llangan barcha juft so‘zlar o‘ziga xos badiiy yuk tashiydi, har bir belgi-xususiyati bilan alohida she‘riy san‘atlarni hosil qilishga xizmat qiladi. Masalan, juft so‘zning muhim semantik belgisi ma‘noni umumlashtirish, jamlashdan iborat. Uning bu xususiyati she‘riy asarlarda ko‘p uchraydigan *jam*, *taqsim*, *tafriq*, *jam va taqsim*, *jam va tafriq*, *laff va nashr* kabi she‘riy san‘atlarni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi, chunki mazkur san‘atlar umumlashtirish, jamlash kabi tushunchalarni obrazli ifodasi hisoblanadi. Juft so‘zlar qismlarining tartibi qat‘iy emas, ba‘zan ular o‘rin almashib kelishi mumkin. Tard-u aks she‘r san‘ati juft so‘zning shu xususiyatini o‘zida namoyon etadi. **Tardu aks** (ar. *teskari qilib takrorlash*) – bayt tarkibidagi ikki so‘z yoki birikmani muayyan bir tartibda keltirib, so‘ng ularning o‘rnini almashtirib takrorlashdan iborat she‘riy san‘at [17.19]. Bu san‘at mumtoz poetikaga doir manbalarda *aks*, *tabdil* nomlari bilan ham keladi.

Chiqdi jondin paykar aylab noz-u husn izhor etib

Zor ul paykarga jon, vola bu husn-u noza ruh.(G‘.S-71-b.)

Demak, Alisher Navoiy she‘riyatida qo‘llangan juft so‘zlar turli she‘riy san‘atlarni vujudga keltirib, badiiylikka xizmat qilgan. She‘rga musiqiylik, ogangdoshlik, joziba bag‘ishlab, ta‘sirchanlikni kuchaytirgan.

Alisher Navoiy she‘riyatida 711ta takroriy so‘z qo‘llangan bo‘lib, o‘ziga xos leksik, semantik, grammatik, badiiy-uslubiy xususiyatlari bilan xarakterlanadi. *Takroriy so‘z* deganda har qanday so‘zning oddiy takrori emas, balki bir so‘zning takror holda qo‘llanishi bilan shu so‘zning leksik ma‘nodan tashqari, ma‘lum grammatik yoki stilistik ottenkalarni ifodalovchi leksik va grammatik jihatdan bir butunlikni tashkil qiluvchi takrorlar tushuniladi[18,112]. Masalan,

Etak-etak guhar ollingda sochsam ermas ayb

Ki, ko‘z xazonasidin **dam-badam** to‘lar etagim. (F.K.210)

Shoirning mazkur baytida takroriy soʻzlar leksik va grammatik jihatdan butun birlikni tashkil qilib, *etak-etak* koʻplik, *dam-badam* esa “uzluksizlik, ketma-ketlik”, yaʼni davomiylik maʼnosini anglatgan.

Takroriy soʻzlar koʻplik, davomiylik, takroriylik kabi maʼnolarni ifodalaydi, maʼnoni kuchaytirishga xizmat qildi. Sheʼr va gaʼazallarda u quyidagicha namoyon boʻladi:

1. **Koʻplik**. Oʻzbek tilida shunday soʻzlar borki, sonlar bilan qoʻllanib oʻlchov, miqdor maʼnolarini ham bildiradi. bunday soʻzlar predmetning oʻlchov (miqdor) jihatdan belgisini bildirib kelishda sonlar bilan birga qoʻllanadi yoki ularning miqdoran koʻp ekanligi, noaniq koʻplik shu soʻzlarni takror holda (takroriy soʻz holida) qoʻllash orqali ifodalanadi. Yakka holda bu xususiyati yoʻqoladi: *ovuch-ovuch, safha-safha, eak-etak, tola-tola, varaq-varaq, xoʻsha-xoʻsha (bosh-bosh), sogʻar-sogʻar (qadah-qadah), qatra-qatra, halqa-halqa, qadah-qadah, qatʼa-qitʼa, xirman-xirman, chin-bachin (oʻram-oʻram), tugun-tugun, olam-olam, tang-tang (toʻp-toʻp), koʻh-koʻh (togʻ-togʻ), xayl-xayl (toʻda-toʻda), saf-saf (qator-qator)* kabilar;

2. **Belgining oshirilishi**. Takrorlash orqali belgining ortiqligini ifodalash, asosan, belgi bildiruvchi soʻzlar yordamida amalga oshiriladi. Bunda belgining ortiqligidan tashqari maʼnoni kuchaytirish hamda koʻplik tushunchasi ham anglashiladi: *qora-qora, ochigʻ-ochigʻ, achchiq-achchiq, turluk-turluk, poko-pok, toza-toza, zor-zor, berk-berk, xor-xor, tor-tor, yupqa-yupqa, chuqur-chuqur, toʻla-toʻla, talh-talh (achchiq-achchiq);*

3. **Maʼnoning kuchaytirish**. Takroriy soʻzning eng asosiy xususiyati maʼno kuchaytirishdir va bu belgi boshqa barcha maʼno ottenkalari (koʻplik, davomiylik, takroriylik) bilan birgalikda kechadi, yonma-yon turadi: *oʻta-oʻta, vah-vah, Olloh-Olloh, yo rab –yo rab, hayhot-hayhote, iynak-iynak (mana-mana), yoʻq-yoʻq, hay-hay, hoy-hoy, logʻ-logʻ (lov-lov), dogʻ-dogʻ, qiyo-qiyo;*

4. **Takroriylik**. Bu holat, asosan, takroriy ravishlar bilan bogʻliq boʻlib, ular oʻzi birikib kelgan feʼldan anglashilgan harakat-holatning takrorlanishini bildiradi: *lahza-lahza, bot-bot, gah-gahe, dam-badam, damo-dam, bir-bir, nafas-nafas, dafʼa-dafʼa, zamon-zamon, nafas-nafas, tah-batah, noʻsho-noʻsh;*

5. **Harakatning takroriyligi va davomiyli**gi. Takroriy soʻzning bu maʼno ottenkasi feʼllarning takrorlanishi natijasida yuzaga keladi: *asray-asray, oʻynay-oʻynay, yalbora-yalbora, kel-kel, tishlab-tishlab, tura-tura, oza-oza, oʻlub-oʻlub, bora-bora, uzub-uzub, kesib-kesib, kelmay-kelmay, islab-islab;*

6. **Taʼkidlash**. Oʻz oʻzlik olmoshini takrorlash orqali taʼkidlash, maʼnoni kuchaytirish yuzaga chiqqan, bunda uning bir komponenti biror kelishik qoʻshimchasini oladi: *oʻz-oʻzuma, oʻz-oʻziga* kabi;

7. **Tartib, ketma-ketlik**: *bir-bir, birin-birin, moʻ-bamoʻ, tim-tim (uzluksiz), qatra-qatra,*

8. **Taqsim**. *Bir-bir, ming-ming, yuz-yuz, yako-yak, manzil-bamanzil;*

9. Baʼzan takroriy soʻzlar ayrim lugʻaviy shakl yasovchi qoʻshimchalar bilar vazifadoshlik hosil qiladi:

Shabistonningda anjum mahram-u kun boʻlgʻali mahrum,

Bu gul-gul ochilib har kecha ul bir xor-xor eltur. (N.Sh.96)

Ushbu baytda *gul-gul ochilib* birikmasini *gul ochilib* shaklida qoʻllab boʻlmaydi, takrordan anglashilgan maʼno yoʻqoladi. *Gul-gul* takroriy soʻzi “guldek” maʼnosini ifodalagan va oʻxshatish, qiyoslash maʼnosini anglatuvchi -day, -dek qoʻshimchasi vazifasida kelgan. Oʻxshatish, qiyoslash maʼnosi ikkala shaklda ham bir xil boʻlsa-da, takrorda maʼno kuchliroq ifodalangan.

Takroriy soʻzlar Alisher Navoiy asarlari tilida mukarrar soʻz sanʼatiga asos boʻlgan. *Mukarrar* termini tarixiy-etimologik jihatdan arabcha boʻlib, *takrorlangan, ikki hissa ortgan; qayta-qayta* kabi lugʻaviy maʼnolarini anglatadi.[17.258] *Mukarrar* (a.) soʻzning yondosh takroriga asoslangan lafziy sanʼat.

Bunda muayyan soʻz yoki tushunchaga urgʻu berish maqsadida ular yonma-yon qoʻllanib, ular orasiga chiziqcha qoʻyiladi. Mukarrar shu jihati bilan takrir sanʼatidan farqlanadi.[19.14]

Alisher Navoiy ushbu sanʼatning sheʼrdagi ahamiyatiga alohida eʼtibor bergani tufayli oʻz gʻazallarida ham, dostonlarida ham takror soʻzlarni koʻp qoʻllaydi. Shoir gʻazallarida koʻproq ot, sifat, ravish, feʼl turkumiga mansub takror soʻzlar qoʻllanishini kuzatamiz:

Tola-tola nay oʻqung koʻksunda goʻyo sindikim,

Tevraluptur notavon koʻnglumda bir-bir tolalar (2.4.414)

Oʻtarsen oʻynay-oʻynay men gadoyi xasta yoʻl uzra,

Qolurmen bir qiyo boqmoq uchun yolbora-yolbora. (2.3.403)

Yetishsa ishq aro yuz mehnatu balo, qadah ich,

Nafas-nafas quyubon may toʻla-toʻla qadah ich (2.4.226)

Demak, shoir gʻazaliyotida takror soʻzlar vositasida yaratilgan mukarrar sanʼati baytlarning musiqiyiligini, ohangdorligini, jozibadorligini taʼminlash bilan birga, gʻoyaviy mazmunining yanada yuksak boʻlishiga, lirik qahramon hissiyotlari va qalb kechinmalarining chuqur va yorqin ifodalanishiga xizmat qilgan.

Alisher Navoiyning barcha asarlarida, jumladan, sheʼriyatida oʻzbek tilining boyligi, jozibasi, sehri, noz-u nazokati, imkoniyat koʻlamining kengligi va betakrorligi toʻliq aks etgan. U tilning barcha birlik va vositalaridan yuksak mahorat bilan foydalangan, jumladan, shoir sheʼriyatida juft va takroriy soʻzlarning umumiy salmogʻi, turgan oʻrni hamda vazifasi serqirra, keng, sermahsul. Shu jihatdan shoir sheʼriyatiga xos juft va takroriy soʻzlarni oʻrganish dlarblik kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Тошкент, 1983.
2. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент, 2002.
3. Дониёров Х. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. – Тошкент: Фан, 1969.
4. Абдуллоев Ф. XV аср ўзбек адабий тилининг диалектал масаласи //Навоий ва адабий таъсир масалалари. – Тошкент, 1968.
5. Фозилов Э.И. Қадимги обидалар ва Алишер Навоий тили. – Тошкент, 1969.
6. Санакулов У. Исследование языка памятника XV в. «Мухакамат ал-лугатайн» Алишера Навои: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1971.
7. Рустамов А. Алишер Навоий «Маҳбуб ул-қулуб» асарининг баъзи бир грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1958.
8. Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент, 1984;
9. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1968.
10. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари. – Тошкент, 1990;
11. Содиков Қ. Алишер навоий асарлари тилининг фонетикаси//Истиклол даври ўзбек навоийшунослиги: 30 жилдлик. – Тошкент: Tamaddun, 2022. – 12 ж.
12. Каримов А. Алишер Навоий «Фарҳод ва Ширин» достони тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент, 1973.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

13. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – II j.
14. Mahkamov N., Ermatov I. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2013.
15. Коллектив. Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент: Фан, 1976.
16. Абдурахмонов Ф. Навоий тилининг грамматик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1984
17. Алишер Навоий: қомусий луғат. Маъсул муҳаррир: Ш.Сирожиддинов. – Тошкент: Шарқ, 2016
18. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1963.
19. Қуронон Д. ва б. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент, 2010.